

HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY SALOHİYATNING AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF FINANCIAL CAPACITY IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS

**¹Avezov Mirzobek
Komiljonovich**

¹Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
"Biznes va boshqaruv" kafedrası dotsenti v.b., PhD.
E-mail: avezov.mirzobek@urdu.uz

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va aholi hayot darajasini oshirishda strategik ahamiyatga ega. Shu boisdan, ushbu maqolada mahalliy darajadagi infratuzilma rivoji, resurslarning samarali taqsimlanishiga va makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi borasida tahlillar olib borilgan bo'lib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda moliyaviy salohiyatning ahamiyati va moliyaviy salohiyatdan samarali foydalanish bo'yicha xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Eng. - The socio-economic development of regions is of strategic importance in ensuring a country's economic stability and improving the living standards of the population. The development of infrastructure at the local level positively influences the efficient allocation of resources and contributes to macroeconomic stability. This article examines the importance of financial capacity in the socio-economic development of regions and presents conclusions and recommendations on the effective utilization of financial capacity.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *moliyaviy resurs, moliyaviy salohiyat, investitsiyalar, mahalliy budget, iqtisodiy o'sish.*
❖ *financial resources, financial capacity, investments, local budget, economic growth.*

Kirish.

Hududlarda ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanishi uchun samarali strategiyani shakllantirish, uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlarni aniqlashga asoslangan chuqur innovatsion izlanishlarni amalga oshirish talab etiladi. Bunday yondashuv xo'jalik yuritishning zamonaviy sharoitlarida iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyot yo'liga bosqichma-bosqich o'tishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, intellektual va moliyaviy resurslarni jalb etish ishlab chiqarishning innovatsion

rivojlanishinida muhim omil hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda hududlar moliyaviy salohiyatini mustahkamlash hamda budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish jarayonida moliyaviy salohiyatning nafaqat institutsional, balki iqtisodiy, moliyaviy, mehnat, investitsion va innovatsion kabi tarkibiy omillarining ahamiyatini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasi hisobotida "...hududlar moliyaviy salohiyatini rivojlantirish, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish mamlakatlar Markaziy banki, Moliya vazirligi, soliq,

statistika idoralari va moliya sektorini nazorat qiluvchi organlarning ustuvor vazifasi hisoblanadi, bu o'z navbatida hududlarda aholining turmush farovonligini oshirish, hududlar o'rtasidagi tafovutni qisqartirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish borasidagi ilmiy izlanishlarni kengaytirishni taqozo etadi" [1], deb ta'kidlanadi. Bu esa, hududlarni barqaror iqtisodiy rivojlantirishda moliyaviy salohiyatning ahamiyatini yanada oshirib, ularning investitsion jozibadorligi, raqobatbardoshligi va iqtisodiy o'sish sur'atlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bir qator olimlar moliyaviy salohiyat tushunchasiga o'z ta'riflarini berib o'tganlar. Xususan, E.V. Borovikova, E.A. Isaeva, T.K. Miroshnikova, N.M. Sabitova ta'rifiga ko'ra: "Moliyaviy salohiyat – bu safarbar qilingan moliyaviy resurslarning iqtisodiy subyektlarga maksimal daromad olish imkoniyatini ta'minlash qobiliyati bo'lib, unda resurslardan foydalanish samaradorligi, ularning o'zaro taqqoslanishi va hudud ehtiyojlariga mos kombinatsiyasi hisobga olinishi lozim" [2].

Y.I. Bulatova, L.V. Buranova, E.A. Verbinenko va P.P. Xolodovlarning resurs yondashuviga asoslangan talqiniga ko'ra, hududiy moliyaviy salohiyat – bu muayyan hudud ixtiyoridagi barcha moliyaviy resurslarning yig'indisidan iborat bo'lib, ushbu resurslar takror ishlab chiqarish jarayonida faol ishtirok etish imkoniga ega hamda aholining turli ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi imkoniyatlar majmuasidir [3]. Ushbu yondashuv moliyaviy salohiyatni, avvalo, hududda mavjud bo'lgan moliyaviy resurslarning hajmi va tarkibi orqali baholash zarurligini ta'kidlaydi.

T.K. Miroshnikova tomonidan ilgari surilgan jarayonli yondashuv esa moliyaviy salohiyatni faqat mavjud resurslarning miqdoriy parametrlari orqali emas, balki ularning foydalanish samaradorligi, ya'ni,

moliyaviy resurslardan olinadigan yakuniy iqtisodiy ta'sir darajasi bilan tavsiflaydi [4]. Mazkur yondashuvda moliyaviy salohiyatning shakllanishi va namoyon bo'lishida resurslardan oqilona foydalanish darajasi, moliyaviy boshqaruvning samaradorligi hamda moliyaviy oqimlarning tarkibiy va funksional optimalligi kabi ko'rsatkichlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Jahon banki ta'rifiga muvofiq, moliyaviy salohiyat - bu davlat hamda hududiy boshqaruv organlarining mavjud moliyaviy resurslarni safarbar etish, ularni samarali boshqarish majmuasini ifodalovchi ko'p komponentli iqtisodiy kategoriya hisoblanadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda empirik va nazariy darajadagi usullardan, ya'ni induksiya, deduksiya, tahlil va sintez, kuzatuv usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Hududiy moliyaviy salohiyat bu, bir tomondan, hudud ixtiyoridagi moliyaviy resurslarning hajmi va tarkibi kabi miqdoriy ko'rsatkichlar, ikkinchi tomondan esa, ushbu resurslarning ijtimoiy-iqtisodiy samara keltirish qobiliyatini belgilovchi sifat omillarining uyg'un majmuasidir. Moliyaviy salohiyatdan oqilona va samarali foydalanish hududlarning barqaror rivojlanishini, aholi turmush darajasining izchil yaxshilanishini hamda hududiy boshqaruv mexanizmlarining institutsional samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Moliyaviy salohiyatni baholash ko'rsatkichlarini olimlarning yodoshuvlariga ko'ra shartli ravishta natijadorlik, resurs va jarayonli yondoshuvlarga ajratgan holda tasniflash mumkin.

Natijadorlik yondashuvi tarafdorlari (E.V. Borovikova, E.A. Isaeva, T.K. Miroshnikova, N.M. Sabitova) fikricha, ushbu tushunchani aniqlashda asosiy urg'u safarbar qilingan moliyaviy resurslarning hududiy iqtisodiy subyektlarga yuqori daromad

olish imkoniyatini ta'minlashiga qaratilishi lozim. Demak, hudud moliyaviy salohiyatini natijadorlik nuqtai nazaridan baholashda uning tarkibiy elementlaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish, ularni o'zaro

solishtirish hamda hudud ehtiyojlarini optimal darajada qondira oladigan eng maqbul resurslar kombinatsiyasini aniqlash zarur bo'ladi.



1-rasm. Hududiy moliyaviy salohiyatning tarkibiy qismlari¹

Resurs yondashuvi (Y.I. Bulatova, L.V. Buranova, E.A. Verbinenko, P.P. Xolodov)ga ko'ra, hududiy moliyaviy salohiyat mavjud moliyaviy resurslar majmuasi bilan tenglashtiriladi va u "hududdagi barcha moliyaviy resurslarning jamlanmasi bo'lib, ular takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishi hamda aholining ehtiyojlarini qondira olishi" sifatida talqin etiladi. Moliyaviy resurslar manbalari ikki guruhga bo'linadi:

- ❖ Markazlashgan (hududiy hokimiyat ixtiyorida),
- ❖ Markazlashmagan (xo'jalik subyektlari va aholining moliyaviy resurslari).

Jarayonli yondashuv nuqtai nazaridan esa, moliyaviy salohiyat – bu hududiy iqtisodiy subyektlarning faoliyati orqali shakllanadigan resurslarni boshqarish va ularni samarali yo'naltirish jarayonidir. Bu yondashuvda nafaqat resurslarning hajmi, balki ularning qanday ishlatilishi va samaradorligi ham muhim hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hududiy iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy salohiyat bir-biriga uzviy bog'liq jarayonlardir. Moliyaviy

salohiyat hudud iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan resurslarni safarbar etish va rivojlanish jarayonlarini moliyaviy ta'minlash imkonini beradi. O'z navbatida, iqtisodiy rivojlanish budjet tushumlari, soliq bazasi, investitsiya oqimlari va aholi daromadlarini oshirgan holda moliyaviy salohiyatni kengaytiradi.

Xulosa va takliflar.

Moliyaviy salohiyat va iqtisodiy rivojlanish o'zaro bog'liq bo'lgan ikki tomonlama ta'sir mexanizmiga ega bo'lib, ular bir-birini nafaqat to'ldiradi, balki mustahkamlaydi. Hududlar moliyaviy salohiyatining yaxshilanishi investitsion jozibadorlikni oshiradi, iqtisodiy faollikni kengaytiradi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining takomillashuviga xizmat qiladi. Shuningdek, hududlarning iqtisodiy rivojlanishi yangi moliyaviy manbalar shakllanishini, budjet tushumlarining ko'payishini va moliyaviy boshqaruv tizimining takomillashishini ta'minlaydi.

Moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hududning iqtisodiy barqarorligini

¹Muallif tadqiqotlari natijasida shakllantirildi.

ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib, iqtisodiy o'sish sur'atlarining izchil davom etishiga, korxonalar faoliyatining barqarorlashuviga hamda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu jarayon aholining ijtimoiy farovonligini oshirish, bandlik darajasini yaxshilash va hududda yashash sharoitlarini

modernizatsiya qilish kabi ustuvor vazifalarning samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Natijada, moliyaviy salohiyatning samarali boshqarilishi uzoq muddatli barqaror taraqqiyotning mustahkam poydevorini yaratib, hududning milliy iqtisodiyotdagi pozitsiyasini yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalqaro Valyuta Jamg'armasining 2021-yil uchun yillik hisoboti - <https://www.imf.org/external/pubs/ft/ar/2021/eng/downloads/imf-annual-report-2021-ru.pdf>
2. Боровикова Е.В., Исаева Э.А., Мирошникова Т.К., Сабитова Н.М. – Региональный финансовый потенциал: сущность и структура.
3. Булатова Ю.И., Буранова Л.В., Вербиненко Е.А., Холодов П.П. – Ресурсный подход к определению финансового потенциала региона.
4. Мирошникова Т.К. – Финансовый потенциал региона: процессный подход к определению.
5. World Bank. Development Policy Financing Retrospective. Washington, 2021.